

UO‘K(UDC, YDK): 81.139

ERTAK – TILSHUNOSLIKNING OBYEKTI SIFATIDA O‘RGANILISHI²⁸**G‘o‘chchiyeva Rohilabonu Abdurahmon qizi***O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti tayanch doktoranti**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: rguchchiyeva@gmail.com**ORCID ID: 0009-0005-9297-8974*

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
Mazkur maqolada ertak janrining tilshunoslik obyekti sifatida o‘rganilishiga doir nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Ertaklar uzoq vaqt davomida asosan folklor, adabiyotshunoslik va pedagogika doirasida tadqiq etilgan bo‘lsa-da, zamonaviy lingvistika nuqtayi nazaridan ular murakkab matn, diskurs, semantik va lingvokulturologik hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Maqolada ertaklarning narrativ tuzilishi, obrazlar tizimi, metaforik birliklari, ramziy ma’nolari, baholovchi leksikasi hamda madaniy kodlarni ifodalash xususiyatlari yoritiladi. Maqolada ertaklarning tilshunoslik obyekti sifatida o‘rganilishi D. Andonovska-Trajkovska, I. N. Chudnovskaya, M. E. Lipatova, J. Herrero Ruiz, A. G. Stamou, J. Orton, Y. Kiliç va C. Ruini tadqiqotlari asosida yoritiladi. Unda ertak matnlarining strukturaviy, kognitiv, madaniy, diskursiv va lingvosemiotik xususiyatlari hamda bolalar tafakkuri va til kompetensiyasini shakllantirishdagi ahamiyati asoslanadi. Shuningdek, ertak matnining pragmatik, stilistik, semiotik va lingvokognitiv jihatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ertaklarning til ta’limi, tarjimashunoslik, gender diskursi va madaniyatlararo kommunikatsiyadagi ahamiyati ham ko‘rib chiqiladi. Natijada ertak oddiy badiiy matn emas, balki xalq tafakkuri, madaniy xotira va ijtimoiy tajribani til orqali ifodalovchi muhim lingvistik obyekt ekanligi asoslanadi.	Ertak, tilshunoslik, diskurs, lingvokulturologiya, semantika, stilistika, narrativ matn, metafora, semiotika, lingvokognitiv tahlil. Received: February 19, 2026 Accepted: May 16, 2026 Available online: September 5, 2026

²⁸ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

G‘o‘chchiyeva R. Ertak – tilshunoslikning obyekti sifatida o‘rganilishi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 433-451.

THE STUDY OF FAIRY TALES AS AN OBJECT OF LINGUISTICS

Guchchiyeva Rohilabonu Abdurahmon qizi*Doctoral student at Uzbekistan**State World Languages University**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: rguchchiyeva@gmail.com**ORCID ID: 0009-0005-9297-8974*

ABSTRACT

This article analyzes theoretical approaches to the study of fairy tales as an object of linguistics. Although fairy tales have traditionally been examined within folklore studies, literary studies, and pedagogy, modern linguistics interprets them as complex textual, discursive, semantic, and linguocultural phenomena. The article discusses the narrative structure of fairy tales, their system of images, metaphorical units, symbolic meanings, evaluative vocabulary, and the expression of cultural codes. In the article discusses the study of fairy tales as an object of linguistics based on the research of D. Andonovska-Trajkovska, I. N. Chudnovskaya, M. E. Lipatova, J. Herrero Ruiz, A. G. Stamou, J. Orton, Y. Kiliç, and C. Ruini. It highlights the structural, cognitive, cultural, discursive, and linguosemiotic features of fairy-tale texts, as well as their importance in shaping children's thinking and language competence. It also examines the pragmatic, stylistic, semiotic, and linguocognitive features of fairy-tale texts based on relevant scholarly sources. Special attention is paid to the role of fairy tales in language education, translation studies, gender discourse, and intercultural communication. The study concludes that fairy tales are not merely literary texts but significant linguistic objects that reflect folk thinking, cultural memory, and social experience through language.

KEYWORDS

Fairy tale, linguistics, discourse, linguoculturology, semantics, stylistics, narrative text, metaphor, semiotics, linguocognitive analysis.

ИЗУЧЕНИЕ СКАЗКИ КАК ОБЪЕКТА ЛИНГВИСТИКИ

Гуччиева Рохилабону Абдурахмон кизи

*Базовый докторант Узбекского государственного
университета мировых языков**Ташкент, Узбекистан**E-mail: rguchchiyeva@gmail.com**ORCID ID: 0009-0005-9297-8974*

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В данной статье анализируются теоретические подходы к изучению сказки как объекта лингвистики. Хотя сказки долгое время рассматривались преимущественно в рамках фольклористики, литературоведения и педагогики, с точки зрения современной лингвистики они интерпретируются как сложный текстовый, дискурсивный, семантический и лингвокультурологический феномен. В статье рассматриваются нарративная структура сказок, система образов, метафорические единицы, символические значения, оценочная лексика и особенности выражения культурных кодов. Изучение сказок как объекта лингвистического исследования в статье осуществляется на основе работ Д. Андоновской-Трайковской, И.Н. Чудновской, М.Е. Липатовой, Х. Эрреро Руиса, А.Г. Стамбу, Дж. Ортона, Й. Кылыча и К. Руини. В ней освещаются структурные, когнитивные, культурные, дискурсивные и лингвосомиотические особенности сказочных текстов, а также их значение в формировании детского мышления и языковой компетенции. Также на основе научных источников анализируются прагматические, стилистические, семиотические и лингвокогнитивные аспекты сказочного текста. Особое внимание уделяется роли сказок в языковом образовании, переводоведении, гендерном дискурсе и межкультурной коммуникации. В результате обосновывается, что сказка является не только художественным текстом, но и важным лингвистическим объектом, отражающим народное мышление, культурную память и социальный опыт посредством языка.	Сказка, лингвистика, дискурс, лингвокультурология, семантика, стилистика, нарратив, метафора, семиотика, лингвокогнитивный анализ.

KIRISH

Ertak xalq ogʻzaki ijodining qadimiy va sarmazmun janrlaridan biri sifatida insoniyat madaniy tafakkurida alohida oʻrin egallaydi. U avlodlardan avlodga oʻtib kelgan ijtimoiy tajriba, axloqiy qarashlar, milliy qadriyatlar va dunyoni idrok etish shakllarini obrazli til vositalari orqali ifodalaydi. Shu sababli ertaklar nafaqat folklorshunoslik yoki adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik uchun ham muhim tadqiqot materiali hisoblanadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan ertak matni oʻziga xos leksik-semantik, grammatik, stilistik, pragmatik va diskursiv xususiyatlarga ega. Ertaklarda takroriy formulalar, ramziy obrazlar, metaforalar, epitetlar, mubolagʻalar, dialogik nutq shakllari, baholovchi birliklar va madaniy kodlar faol qoʻllanadi. Bu jihatlar ertakni oddiy badiiy matn emas, balki xalq tafakkuri va madaniy xotirasini ifodalovchi murakkab lingvistik birlik sifatida oʻrganish zarurligini koʻrsatadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ertak janrini tilshunoslikning obyekti sifatida oʻrganishning nazariy asoslarini yoritish, ertak matnining asosiy lingvistik xususiyatlarini aniqlash hamda uning semantik, stilistik, diskursiv va lingvokulturologik ahamiyatini asoslashdan iborat.

ASOSIY QISM

Zamonaviy tadqiqotlarda ertak oddiy bolalar adabiyoti namunasi sifatida emas, balki maʼno yaratish, madaniy kodlarni uzatish, emotsional tajribani ifodalash va ijtimoiy rollarni shakllantirishga xizmat qiluvchi murakkab matn turi sifatida talqin qilinmoqda (Orton J., 2016, Article 50; Chudnovskaya I. N. & Lipatova M. E., 2020, 178-186). Ertaklarning lingvistik ahamiyati ularning barqaror syujet tuzilishi, takroriy formulalari, ramziy obrazlari, metaforik birliklari va baholovchi leksikasi orqali namoyon boʻladi. D.Andonovska-Trajkovska Propp funksiyalarining bolalar tomonidan ertaklarni idrok etish jarayonida tan olinishi mumkinligini koʻrsatib, ertak strukturasining nafaqat adabiy, balki kognitiv va lingvistik jihatdan ham muhimligini taʼkidlaydi (Andonovska-Trajkovska D., 2012, 4700-4704). Bu yondashuv ertakda voqealar ketma-ketligi, qahramon funksiyalari, yordamchi obrazlar, sinov va mukofot motivlari maxsus matn modeli sifatida shakllanishini koʻrsatadi. Demak, ertak tilshunoslikda matnning ichki tuzilishi,

narrativ sxemasi va semantik tashkil topishini o'rganish uchun qulay material vazifasini bajaradi. Ertak matnining lingvokognitiv tahlili, ayniqsa, undagi metafora, ramz va konseptual obrazlar orqali amalga oshiriladi. J.Herrero Ruiz ertaklarni adabiyot, madaniyat, tilshunoslik va kognitsiya kesishmasida tahlil qilib, mahalliy xarakterga ega metaforalar ertaklarda madaniy tajriba va bilish jarayonlarini ifodalashini ko'rsatadi (Herrero Ruiz J., 2015, 47-70). Bunday qarash ertak tilining faqat estetik emas, balki kognitiv vazifaga ham ega ekanini anglatadi. Ertakdagi "yo'l", "o'rmon", "uy", "qahramon", "yovuz kuch", "sehrli predmet" kabi birliklar ko'pincha bevosita predmetni emas, balki insonning hayotiy sinovi, xavf, xavfsizlik, ijtimoiy tajriba yoki axloqiy tanlov kabi chuqurroq ma'nolarni ifodalaydi. Shu sababli ertak lingvokognitiv tahlil uchun boy manba bo'lib, unda til, tafakkur va madaniyat o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ertaklarning semiotik tabiati ham ularni tilshunoslikning muhim tadqiqot obyektiga aylantiradi. S.Volkova va hammualliflar Oscar Wilde ertaklarida pessimizmning lingvistik va semiotik ifodalanishini tahlil qilib, emotsional holatlar, baholovchi birliklar va ramziy obrazlar matnning umumiy ma'no tizimini shakllantirishini ko'rsatadilar (Volkova S. et al., 2023, 281-298). Bu yondashuv ertakni belgilar tizimi sifatida o'rganish imkonini beradi. Ertakdagi qahramonlar, ranglar, predmetlar, harakatlar va makon tasvirlari semiotik belgilar vazifasini bajaradi. Masalan, yorug'lik – yaxshilik, qorong'ilik – xavf yoki noma'lumlik, yo'l – sinov, sehrli yordamchi – ijobiy o'zgarish belgisi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shunday qilib, ertak matni belgilar, obrazlar va til birliklari orqali madaniy ma'nolarni uzatuvchi murakkab semiotik tizimdir.

Stilistik jihatdan ertaklarda trop va obrazli ifoda vositalari muhim o'rin tutadi. L.S. Gergokova hayvonlar haqidagi ertaklar materialida og'zaki xalq ijodi namunalarida tropik vositalarning qo'llanish xususiyatlarini tahlil qiladi (Gergokova L. S., 2022, 417-427). Bunday tadqiqotlar ertak tilida metafora, epitet, personifikatsiya, kinoya, takror, mubolag'a kabi vositalar voqea ta'sirchanligini oshirish, qahramon xarakterini ochish va axloqiy xulosani kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. G.Nabiyeva ingliz ertaklarida kinoya vositasining qo'llanishini

tahlil qilib, ertak tilida bevosita va bilvosita ma'no qatlamlari mavjudligini ta'kidlaydi (Nabiyeva G., 2024, 32-39). Bu esa ertakni pragmatik va stilistik jihatdan o'rganish zarurligini ko'rsatadi, chunki ertakdagi har bir obrazli ifoda o'quvchiga nafaqat axborot, balki munosabat, baho va emotsional ta'sir ham yetkazadi.

Ertaklarning diskursiv xususiyatlari zamonaviy tilshunoslikda alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biridir. Ertaklarning tanqidiy til ongini shakllantirish vositasi sifatida o'rganish, shuningdek, tanqidiy diskurs tahlilini maktab darslariga olib kirish imkoniyatlarini ko'rsatadi (Karagiannaki E. & Stamou A. G., 2018, 222-242). Ularning yondashuviga ko'ra, ertaklar bolalarda til orqali ijtimoiy ma'nolar, stereotiplar va baholash mexanizmlarini anglashga yordam beradi. Bu fikr ertaklarni faqat estetik yoki tarbiyaviy matn sifatida emas, balki ijtimoiy diskursni aks ettiruvchi matn sifatida ham tahlil qilish zarurligini asoslaydi. Ayniqsa, gender rollari, hokimiyat munosabatlari, ijtimoiy tabaqalanish va madaniy stereotiplar ertak diskursida til vositalari orqali ifodalanadi.

Gender diskursi doirasida ertaklarni o'rganish so'nggi yillarda yanada faollashgan. U. Shaheen va B. Tariq ertaklarda gender ideologiyasini tanqidiy diskurs tahlili asosida o'rganib, ayol va erkak obrazlarining tasvirlanishida ijtimoiy stereotiplar muhim rol o'ynashini ko'rsatadilar (Shaheen U. & Tariq B., 2019, 44-59). S. Gul va F. Z. Baig ham ertaklar orqali gender ijtimoiylashuvi masalasini tahlil qilib, ertak matnlari bolalarning jinsga oid tasavvurlarini shakllantirishda muhim omil bo'lishi mumkinligini qayd etadilar (Gul S. & Baig F. Z., 2025). "Hansel and Gretel" ertagining nepallik talqinida gegemon gender e'tiqodlarining qayta qurilishi masalasini tahlil qilingan (Laudari S., 2025, 43-51). Ushbu tadqiqotlar ertak matnida genderga oid birliklar, qahramon rollari, nutqiy pozitsiyalar va baholovchi ifodalar alohida lingvistik tahlilni talab qilishini ko'rsatadi.

Ertaklarni tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Ertak tarjimasida metamorfoza hodisasini lingvokognitiv yondashuv asosida tahlil qilib, tarjima jarayonida nafaqat so'zlar, balki madaniy obrazlar, ramzlar va kognitiv ma'nolar ham qayta ifodalanishini ta'kidlangan (Hayroyan D. & Mkhitaryan I., 2021, 54-64). Bu fikr ertak tarjimasida ekvivalentlik

masalasi oddiy leksik moslik bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Ertakdagi sehrli predmetlar, xalqona iboralar, milliy obrazlar, qahramon nomlari va madaniy ramzlar tarjimada maxsus yondashuvni talab qiladi. Shu bois ertaklar tarjimashunoslikda madaniyatlararo kommunikatsiya, lingvokulturologik adaptatsiya va ma'no transformatsiyasini o'rganish uchun muhim material hisoblanadi.

Ertaklar til ta'limida ham samarali lingvodidaktik vosita sifatida qaraladi. Y.Kilich turk tilini o'qitishda ertaklarning ta'sirini o'quvchilar nuqtayi nazaridan tahlil qilib, ertaklar til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi (Kiliç Y., 2015, 388-396). EFL darslaridagi afzalliklarini ta'kidlab, ular lug'at boyligini oshirish, o'qish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, madaniy bilimni kengaytirish imkonini berishini qayd etadi (Simon M. P., 2022). Shu bilan birgalikda, Ozarbayjon ertaklari orqali yosh o'quvchilarning til o'rganish jarayonini kuchaytirish mumkinligini ko'rsatadi (Khudaverdiyeva T., 2024, 141-150). D.L. Reyes Muñiz va M.C. Toala Alarcón interaktiv ertaklardan EFL o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalanishni tahlil qiladilar (Reyes Muñiz D. L. & Toala Alarcón M. C., 2025, 1280-1302). Ushbu tadqiqotlar ertaklarning tilshunoslikdagi amaliy qiymatini ham ko'rsatadi: ertak matnlari fonetik, leksik, grammatik, pragmatik va madaniy kompetensiyalarni shakllantirish uchun samarali manba bo'la oladi.

Shuningdek, yosh o'quvchilarning analog va raqamli resurslar yordamida multimodal ertaklar yaratish jarayonini o'rganib, ertak matni endilikda faqat yozma yoki og'zaki shaklda emas, balki rasm, tovush, harakat va raqamli vositalar bilan uyg'un holda ham mavjud bo'lishini ko'rsatadi (Wernholm M. et al., 2023, Article 568). Bu yondashuv ertakni multimodal diskurs sifatida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Raqamli davrda ertaklarning tili, vizual tasviri, ovozli ijrosi va interaktiv shakli birgalikda ma'no yaratadi. Demak, ertak tilshunoslikning faqat matnshunoslik yo'nalishida emas, balki multimodal diskurs, media lingvistikasi va raqamli narrativlar doirasida ham dolzarb obyektga aylanmoqda.

Ertaklarning psixologik va terapevtik jihatdan o'rganilishi ham ularning til orqali inson ongiga ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. Xususan, an'anaviy ertaklardan

ijobiy narrativ guruh psixoterapiyasida foydalanish mumkinligini ko'rsatib, ertaklar psixologik farovonlik va shaxsiy o'sishni qo'llab-quvvatlashini ta'kidlanganligi e'tirofga loyiq (Ruini C. et al., 2014, Article 13). Demak, terapevtik ertaklarning klinik, ta'limiy va oilaviy amaliyotlardagi rolini sistematik sharh asosida yoritiladi (Masri A. S. et al., 2024, 136-145). Shu xususidan, ertakterapiyani alohida ehtiyojga ega bolalarda sog'lom turmush kompetensiyasini shakllantirish vositasi sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiq (Kazachiner O. S. & Tkachenko L. P., 2020, 268-293). Ertaklarning kognitiv jarayonlarga ta'siri sifatida ertak matnlari murakkab ramzlar, metaforalar hamda syujet tuzilmasini o'z ichiga oladi. Ularni tinglash jarayoni diqqatni jamlashni kuchaytiradi, chunki voqealar rivojini kuzatish barqaror e'tiborni talab etadi. Shu bilan birga, qahramonlar va voqealarni eslab qolish xotira mexanizmlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ertaklardagi ramziy obrazlarni shaxsiy tajriba bilan bog'lash esa tasavvur, tafakkur va yangi kognitiv sxemalarning shakllanishiga yordam beradi. (Guchchiyeva R., 2025, 602). Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, ertaklarning bolalar adabiyotidagi psixologik ahamiyati yuqori sanaladi (Koutsompou V.E. I., 2016, 213-218). Bu tahlillar ertak tilining emotsional, tarbiyaviy va kommunikativ ta'sir kuchiga ega ekanini ko'rsatadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan esa bunday tadqiqotlar ertakdagi emotsional leksika, baholovchi birliklar, ijobiy va salbiy obrazlarning nutqiy ifodalanishi, shuningdek, bolalarning ertakni idrok etish mexanizmlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar ertakni ko'p qirrali lingvistik obyekt sifatida asoslaydi. Bir tomondan, ertak semantik, stilistik, pragmatik, diskursiv, semiotik va lingvokognitiv tahlil uchun boy material hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, u til ta'limi, tarjima, madaniyatlararo kommunikatsiya, gender diskursi, bolalar psixologiyasi va multimodal kommunikatsiya sohalari bilan uzviy bog'liqdir. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda ertaklar ko'pincha alohida yo'nalishlar, masalan: terapiya, til ta'limi, gender tahlili yoki tarjima doirasida o'rganilgan. Ertakni aynan "tilshunoslikning obyekti" sifatida kompleks yondashuv asosida, ya'ni uning semantik, stilistik, diskursiv, lingvokognitiv va madaniy xususiyatlarini bir butun tizim sifatida tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu jihatdan mazkur


maqola ertak matnining tilshunoslikdagi o'rnini aniqlash, uning asosiy lingvistik xususiyatlarini tizimlashtirish va ertakni zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun mustaqil obyekt sifatida asoslashga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Maqolada mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni nazariy-tahliliy o'rganish, qiyosiy tahlil, tavsifiy metod, lingvostilistik tahlil va diskursiv yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotda ertaklarning tilshunoslikda o'rganilishiga oid xorijiy va zamonaviy ilmiy manbalar ko'rib chiqildi. Asosiy e'tibor ertaklarning semantik mazmuni, obrazli ifoda vositalari, madaniy belgilar tizimi, gender diskursi, tarjima jarayonidagi transformatsiyasi hamda til ta'limidagi lingvodidaktik imkoniyatlariga qaratildi. Tahlil jarayonida ertaklar quyidagi yo'nalishlar asosida ko'rib chiqildi: ertakning *narrativ matn* sifatidagi xususiyatlari; ertaklarda *metafora*, *ramz* va *tropik vositalarning* qo'llanishi; ertak matnining *diskursiv* va *pragmatik jihatlari*; ertaklarning *lingvokulturologik* va *semiotik mazmuni*; ertaklarning *tarjima* va *til ta'limidagi* ahamiyati.


NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ertaklar tilshunoslikda bir nechta yo'nalish bo'yicha tadqiq etilishi mumkin. Birinchidan, ertaklar matn lingvistikasi uchun muhim material bo'lib, ularning kompozitsion tuzilishi, narrativ sxemasi va matn ichidagi bog'lanish mexanizmlarini o'rganish imkonini beradi. Ikkinchidan, ertaklar semantik tahlil uchun boy manba hisoblanadi, chunki ularda yaxshilik, yomonlik, adolat, jasorat, sadoqat, donolik kabi universal tushunchalar til birliklari orqali ifodalanadi. Uchinchidan, ertaklar stilistik tahlil uchun ham muhimdir. Ularda obrazli ifoda vositalari, takrorlar, mubolag'alar, epitetlar va metaforalar keng qo'llanadi. To'rtinchidan, ertaklar lingvokulturologik tadqiqotlar uchun muhim obyekt bo'lib, ular xalqning milliy mentaliteti, urf-odatlar va qadriyatlarini aks ettiradi. Beshinchidan, ertaklar diskursiv tahlil uchun ham dolzarbdir, chunki ularda ijtimoiy rollar, gender tasavvurlari va madaniy stereotiplar ifodalanadi. Shunday qilib, ertak tilshunoslikda faqat badiiy matn sifatida emas, balki madaniy, kognitiv, semiotik va kommunikativ hodisa sifatida ham o'rganilishi lozim.



1-rasm.

1-rasmida ertakni tilshunoslik obyekti sifatida o'rganishga oid ilmiy manbalar asosiy nazariy yo'nalishlar bo'yicha guruhlashtirildi. Tahlil natijalariga ko'ra, diskurs/gender tahlili, lingvodidaktik yondashuv hamda psixologik-terapevtik yondashuv eng ko'p uchraydigan yo'nalishlar sifatida ajralib turadi. Bu holat zamonaviy tadqiqotlarda ertaklar faqat folklor yoki bolalar adabiyoti namunasi sifatida emas, balki ijtimoiy rollar, til ta'limi, emotsional rivojlanish va madaniy ma'nolarni shakllantiruvchi murakkab lingvistik obyekt sifatida talqin qilinayotganini ko'rsatadi.

**2-rasm.**

2-rasmda nazariy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy e'tiborning taqsimlanishi chiziqli grafik orqali ifodalandi. Grafikdan ko'rinadiki, struktur-semantik, lingvokognitiv, semiotik, tarjimashunoslik va multimodal yondashuvlar alohida ilmiy yo'nalish sifatida mavjud bo'lsa-da, ular bo'yicha manbalar soni nisbatan kamroq. Bu esa ertaklarni aynan kompleks lingvistik obyekt sifatida, ya'ni semantik, stilistik, diskursiv, lingvokognitiv va madaniy jihatlarni birlashtirgan holda o'rganish zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ertaklarni tilshunoslik obyekti sifatida o'rganish bir yo'nalishli emas, balki ko'p qirrali va kompleks yondashuvni talab qiladi. Chunki ertak matni o'zida narrativ tuzilma, obrazlar tizimi, ramziy ma'nolar, baholovchi leksika, madaniy kodlar, kommunikativ vazifa va ijtimoiy diskurs elementlarini mujassamlashtiradi. Shu jihatdan ertakni faqat xalq og'zaki ijodi namunasi yoki bolalar adabiyoti shakli sifatida talqin qilish uning lingvistik imkoniyatlarini to'liq ochib bera olmaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda ertak murakkab matn turi, madaniy xotira vositasi, til va tafakkur aloqasini ifodalovchi kognitiv birlik hamda ijtimoiy qadriyatlarni uzatuvchi diskurs sifatida talqin

qilinmoqda Avvalo, ertaklarning narrativ tuzilishi ularni matn lingvistikasi uchun muhim obyektga aylantiradi. Ertaklarda voqealar oddiy ketma-ketlik asosida emas, balki ma'lum semantik va kompozitsion model asosida rivojlanadi. Boshlanish formulalari, qahramonning safarga chiqishi, sinovlardan o'tishi, yordamchi obrazning paydo bo'lishi, muammoning hal etilishi va yakuniy xulosa ertakning barqaror matn tuzilishini tashkil qiladi. Bu esa ertakni tilshunoslikda matnning ichki bog'lanishi, syujetning semantik tashkil topishi va kommunikativ maqsadning amalga oshirilishi nuqtayi nazaridan o'rganish imkonini beradi. Ikkinchidan, ertaklar semantik va lingvokognitiv tahlil uchun boy material hisoblanadi. Ertakdagi "yo'l", "o'rmon", "uy", "sehrli predmet", "yovuz kuch", "qahramon" kabi obrazlar ko'pincha bevosita predmet ma'nosidan tashqariga chiqib, chuqur ramziy va kognitiv mazmun kasb etadi. Masalan, yo'l obrazi hayotiy tajriba va sinov, o'rmon noma'lumlik yoki xavf, sehrli yordamchi esa ijobiy o'zgarish yoki imkoniyat belgisi sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu holat ertaklarda til birliklari oddiy tasvir vositasi emas, balki xalq tafakkuri va madaniy tajribasini ifodalovchi konseptual birliklar ekanini ko'rsatadi. Uchinchidan, ertaklarning stilistik xususiyatlari ham ularning lingvistik qiymatini oshiradi. Ertaklarda *metafora*, *epitet*, *personifikatsiya*, *takror*, *mubolag'a*, *antiteza* va *kinoya* kabi vositalar keng qo'llanadi. Bu vositalar matnning badiiy ta'sirchanligini kuchaytirish bilan birga, qahramon xarakterini ochish, voqeaga baho berish va tinglovchi yoki o'quvchida muayyan emotsional munosabat shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, takroriy birliklar ertak tilining og'zaki nutqqa xos xususiyatlarini saqlab qoladi va matnning esda saqlanishini osonlashtiradi. Shu sababli ertak tili stilistik jihatdan alohida tizim sifatida o'rganilishi lozim. To'rtinchidan, ertaklarni diskursiv tahlil qilish ularning ijtimoiy mazmunini chuqurroq ochib beradi. Ertaklarda jamiyatdagi *gender rollari*, *ijtimoiy tabaqalanish*, *hokimiyat* va *bo'ysunish munosabatlari*, *axloqiy me'yorlar* va *madaniy stereotiplar* til orqali ifodalanadi. Masalan, ayrim an'anaviy ertaklarda erkak qahramonlar faol, jasur va qutqaruvchi obrazida berilsa, ayol qahramonlar ko'pincha go'zallik, sabr, itoatkorlik yoki mehribonlik bilan tavsiflanadi. Bunday tasvirlar ertaklarning jamiyatdagi gender tasavvurlarini aks ettirishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar ertaklarni faqat stereotiplarni mustahkamlovchi matn emas, balki ularni tanqidiy qayta ko'rib chiqish vositasi sifatida ham baholash mumkinligini ko'rsatmoqda. Beshinchidan, ertaklarning lingvokulturologik ahamiyati ayniqsa muhimdir. Har bir xalq ertagida o'sha xalqning milliy mentaliteti, urf-odatlar, qadriyatlar va dunyoni idrok etish tarzi aks etadi. O'zbek xalq ertaklarida *halollik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, ota-onaga ehtirom, sabr-toqat, yaxshilikka ishonch* kabi qadriyatlar tez-tez uchraydi. Bu qadriyatlar bevosita nasihat shaklida emas, balki obrazlar, voqealar rivoji, dialoglar va yakuniy xulosa orqali ifodalanadi. Demak, ertak tilini o'rganish xalq madaniyatini, qadriyatlar tizimini va tarixiy xotirasini o'rganish bilan bevosita bog'liqdir. Oltinchidan, ertaklar tarjimashunoslik uchun ham murakkab obyekt hisoblanadi. Ertak tarjimasida faqat so'zlarning lug'aviy ma'nosini boshqa tilga ko'chirish yetarli emas. Chunki ertak matnida *milliy obrazlar, ramzlar, xalqona iboralar, sehrli predmetlar va madaniy kodlar* mavjud bo'ladi. Agar tarjimada bu birliklarning madaniy mazmuni saqlanmasa, ertakning asl ta'siri susayishi mumkin. Shu bois ertak tarjimasida lingvokulturologik ekvivalentlik, izohli tarjima, moslashtirish va semantik transformatsiya usullari muhim ahamiyatga ega. Yettinchidan, ertaklarning til ta'limidagi imkoniyatlari ham alohida e'tiborga loyiq. Ertaklar o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, matnni tushunish, qayta hikoya qilish, tinglab tushunish, obrazli fikrlash va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, chet tilini o'qitishda ertaklardan foydalanish o'quvchilarga nafaqat yangi so'z va grammatik shakllarni o'rganish, balki boshqa xalqning madaniy dunyoqarashini anglash imkonini ham beradi. Bu esa ertaklarni lingvodidaktik tadqiqotlar uchun muhim manbaga aylantiradi. Sakkizinchidan, zamonaviy raqamli muhit ertaklarning yangi shakllarini yuzaga chiqarmoqda. Bugungi kunda ertaklar faqat og'zaki yoki yozma shaklda emas, balki audio, video, animatsiya, elektron kitob va interaktiv platformalar orqali ham tarqalmoqda. Bunday multimodal shakllarda ma'no faqat so'z orqali emas, balki rasm, tovush, rang, harakat va vizual dizayn orqali ham yaratiladi. Shuning uchun ertaklarni multimodal diskurs sifatida o'rganish zamonaviy tilshunoslikning

dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Tahlil qilingan ilmiy yondashuvlar shuni koʻrsatadiki, mavjud tadqiqotlarda ertaklarning ayrim jihatlari, masalan, stilistik vositalar, gender diskursi, tarjima muammolari, til taʼlimidagi oʻrni yoki terapevtik ahamiyati alohida oʻrganilgan. Biroq ertakni aynan tilshunoslikning mustaqil va kompleks obyekti sifatida umumlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Chunki ertak bir vaqtning oʻzida matn, diskurs, madaniy belgi, kognitiv model va kommunikativ vosita sifatida namoyon boʻladi. Shu sababli uni faqat bitta nazariy yondashuv bilan tahlil qilish yetarli emas.

Xulosa qilib aytganda, ertak tilshunoslikning muhim va koʻp qirrali obyekti hisoblanadi. Uning matn tuzilishi, semantik mazmuni, stilistik vositalari, diskursiv xususiyatlari va lingvokulturologik mazmuni ertaklarni zamonaviy lingvistik tadqiqotlar uchun dolzarb manbaga aylantiradi. Ertaklarda xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari, axloqiy qarashlari va ijtimoiy tajribasi til orqali ifodalanadi. Tadqiqot natijalariga koʻra, ertaklarni tilshunoslikda quyidagi yoʻnalishlarda oʻrganish maqsadga muvofiq: matn lingvistikasi, semantika, stilistika, pragmatika, diskurs tahlili, lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va lingvodidaktika. Bunday kompleks yondashuv ertakning nafaqat badiiy-estetik, balki ilmiy-lingvistik ahamiyatini ham chuqurroq ochib beradi. Shu asosda aytish mumkinki, ertaklar tilshunoslik uchun xalq tafakkuri, madaniy xotira, obrazli nutq va ijtimoiy maʼnolarni oʻrganishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy obyekt sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Andonovska-Trajkovska D. Propp's functions recognized in the children's perceptions of the fairy tales // *Procedia - Social and Behavioral Sciences*. – 2012. – Vol. 46. – P. 4700–4704. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.05.363>
2. Chudnovskaya I. N., Lipatova M. E. The fairy tale as a place of memory in the context of intergenerational communication // *Journal of History Culture and Art Research*. – 2020. – Vol. 9, No. 3. – P. 178–186. – DOI: <https://doi.org/10.7596/taksad.v9i3.2824>

3. Gergokova L. S. Peculiarities of the use of tropes in Karachay-Balkarian works of oral folk creativity: By the material of fairy tales about animals // *Caucasology*. – 2022. – No. 4. – P. 417–427. – DOI: <https://doi.org/10.31143/2542-212X-2022-4-417-427>
4. Guchchiyeva R. The significance and impact of art therapy and fairy tale therapy in the development of children and adolescents with psychosocial problems // *International Conference on Science, Education & Law*. – 2025. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17505198>
5. Gul S., Baig F. Z. Gender socialization through fairy tales: A critical discourse analysis // *Contemporary Research: An Interdisciplinary Academic Journal*. – 2025. – DOI: <https://doi.org/10.59075/cykgy616>
6. Hayroyan D., Mkhitaryan I. Metamorphosis in fairy tale translation: Linguocognitive perspective // *Translation Studies: Theory and Practice*. – 2021. – Vol. 1, No. 1. – P. 54–64. – DOI: <https://doi.org/10.46991/TSTP/2021.1.1.64>
7. Herrero Ruiz J. At the crossroads between literature, culture, linguistics, and cognition: Local character-based metaphors in fairy tales // *Journal of English Studies*. – 2015. – Vol. 13. – P. 47–70. – DOI: <https://doi.org/10.18172/jes.3060>
8. Karagiannaki E., Stamou A. G. Bringing critical discourse analysis into the classroom: A critical language awareness project on fairy tales for young school children // *Language Awareness*. – 2018. – Vol. 27, No. 3. – P. 222–242. – DOI: <https://doi.org/10.1080/09658416.2018.1444046>
9. Kazachiner O. S., Tkachenko L. P. Fairy-tale therapy as a means of forming health-saving competence of children with SEN // *Revista Românească pentru Educație Multidimensională*. – 2020. – Vol. 12, No. 3. – P. 268–293. – DOI: <https://doi.org/10.18662/rrem/12.3/321>
10. Khudaverdiyeva T. Enhancing language learning in young learners through Azerbaijani fairy tales // *EuroGlobal Journal of Linguistics and Language Education*. – 2024. – Vol. 1, No. 1. – P. 141–150. – DOI: <https://doi.org/10.69760/g6vv0g32>

11. Kiliç Y. Survey on effects of fairy tales on Turkish language training from secondary school students' perspective // Educational Research and Reviews. – 2015. – Vol. 10, No. 4. – P. 388–396. – DOI: <https://doi.org/10.5897/ERR2015.2073>
12. Koutsompou V.-E. I. The child and the fairy tale: The psychological perspective of children's literature // International Journal of Languages, Literature and Linguistics. – 2016. – Vol. 2, No. 4. – P. 213–218. – DOI: <https://doi.org/10.18178/IJLL.2016.2.4.98>
13. Laudari S. Reconstruction of hegemonic gender beliefs through fairy tales: A critical discourse analysis of Nepali version of “Hansel and Gretel” // Campion Journal of Multidisciplinary Research and Explorer. – 2025. – Vol. 1, No. 1. – P. 43–51. – DOI: <https://doi.org/10.3126/cjmre.v1i1.89394>
14. Masri A. S., Nuryatin A., Subyantoro, Doyin M., Prusdianto. Therapeutic fairytales for holistic child development: A systematic literature review of clinical, educational, and family-based practices // Journal of Mother and Child. – 2024. – Vol. 28. – P. 136–145. – DOI: <https://doi.org/10.34763/jmotherandchild.20242801.d-24-00040>
15. Nabiyeva G. The use of irony in English fairy tales // Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics. – 2024. – Vol. 2, No. 1. – P. 32–39. – DOI: <https://doi.org/10.1997/f30sw671>
16. Orton J. Himalayan folklore and the fairy tale genre // Humanities. – 2016. – Vol. 5, No. 3. – Article 50. – DOI: <https://doi.org/10.3390/h5030050>
17. Reyes Muñiz D. L., Toala Alarcón M. del C. The use of interactive fairy tales to enhance listening skills in EFL learners // Reincisol. – 2025. – Vol. 4, No. 7. – P. 1280–1302. – DOI: [https://doi.org/10.59282/reincisol.V4\(7\)1280-1302](https://doi.org/10.59282/reincisol.V4(7)1280-1302)
18. Ruini C., Masoni L., Ottolini F., Ferrari S. Positive narrative group psychotherapy: The use of traditional fairy tales to enhance psychological well-being and growth // Psychology of Well-Being. – 2014. – Vol. 4. – Article 13. – DOI: <https://doi.org/10.1186/s13612-013-0013-0>

19. Shaheen U., Tariq B. Exploring gender ideology in fairy tales: A critical discourse analysis // *European Journal of English Language and Literature Studies*. – 2019. – Vol. 7, No. 2. – P. 44–59.
20. Simon M. P. The benefits of using fairy tales in EFL classrooms // *Asian Education Studies*. – 2022. – Vol. 7, No. 3. – DOI: <https://doi.org/10.20849/aes.v7i3.1138>
21. Volkova S., Boichuk V., Pavliuk A., Yefremova N. Linguistic and semiotic representation of pessimism in *The Happy Prince and Other Tales* by Oscar Wilde // *East European Journal of Psycholinguistics*. – 2023. – Vol. 10, No. 1. – P. 281–298. – DOI: <https://doi.org/10.29038/eejpl.2023.10.1.vol>
22. Wernholm M., Danielsson K., Ebbelind A., Palmér H., Patron E. Young pupils' joint creation of multimodal fairy tales using analogue and digital resources // *Education Sciences*. – 2023. – Vol. 13, No. 6. – Article 568. – DOI: <https://doi.org/10.3390/educsci13060568>

REFERENCE

1. Andonovska-Trajkovska, D. (2012). Propp's functions recognized in the children's perceptions of the fairy tales. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 46, 4700–4704. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.05.363>
2. Chudnovskaya, I. N., & Lipatova, M. E. (2020). The fairy tale as a place of memory in the context of intergenerational communication. *Journal of History Culture and Art Research*, 9(3), 178–186. <https://doi.org/10.7596/taksad.v9i3.2824>
3. Gergokova, L. S. (2022). Peculiarities of the use of tropes in Karachay-Balkarian works of oral folk creativity: By the material of fairy tales about animals. *Caucasology*, 4, 417–427. <https://doi.org/10.31143/2542-212X-2022-4-417-427>.
4. Guchchiyeva, R. (2025). The significance and impact of art therapy and fairy tale therapy in the development of children and adolescents with psychosocial problems. *International Conference on Science, Education & Law*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17505198>

5. Gul, S., & Baig, F. Z. (2025). Gender socialization through fairy tales: A critical discourse analysis. *Contemporary Research: An Interdisciplinary Academic Journal*. <https://doi.org/10.59075/cykggy616>
6. Hayroyan, D., & Mkhitaryan, I. (2021). Metamorphosis in fairy tale translation: Linguocognitive perspective. *Translation Studies: Theory and Practice*, 1(1), 54–64. <https://doi.org/10.46991/TSTP/2021.1.1.64>
7. Herrero Ruiz, J. (2015). At the crossroads between literature, culture, linguistics, and cognition: Local character-based metaphors in fairy tales. *Journal of English Studies*, 13, 47–70. <https://doi.org/10.18172/jes.3060>
8. Karagiannaki, E., & Stamou, A. G. (2018). Bringing critical discourse analysis into the classroom: A critical language awareness project on fairy tales for young school children. *Language Awareness*, 27(3), 222–242. <https://doi.org/10.1080/09658416.2018.1444046>
9. Kazachiner, O. S., & Tkachenko, L. P. (2020). Fairy-tale therapy as a means of forming health-saving competence of children with SEN. *Revista Românească pentru Educație Multidimensională*, 12(3), 268–293. <https://doi.org/10.18662/rrem/12.3/321>
10. Khudaverdiyeva, T. (2024). Enhancing language learning in young learners through Azerbaijani fairy tales. *EuroGlobal Journal of Linguistics and Language Education*, 1(1), 141–150. <https://doi.org/10.69760/g6vv0g32>
11. Kiliç, Y. (2015). Survey on effects of fairy tales on Turkish language training from secondary school students' perspective. *Educational Research and Reviews*, 10(4), 388–396. <https://doi.org/10.5897/ERR2015.2073>
12. Koutsompou, V.-E. I. (2016). The child and the fairy tale: The psychological perspective of children's literature. *International Journal of Languages, Literature and Linguistics*, 2(4), 213–218. <https://doi.org/10.18178/IJLLL.2016.2.4.98>
13. Laudari, S. (2025). Reconstruction of hegemonic gender beliefs through fairy tales: A critical discourse analysis of Nepali version of “Hansel and Gretel”. *Campion Journal of Multidisciplinary Research and Explorer*, 1(1), 43–51. <https://doi.org/10.3126/cjmre.v1i1.89394>

14. Masri, A. S., Nuryatin, A., Subyantoro, Doyin, M., & Prusdianto. (2024). Therapeutic fairytales for holistic child development: A systematic literature review of clinical, educational, and family-based practices. *Journal of Mother and Child*, 28, 136–145. <https://doi.org/10.34763/jmotherandchild.20242801.d-24-00040>
15. Nabiyeva, G. (2024). The use of irony in English fairy tales. *Journal of Language Pedagogy and Innovative Applied Linguistics*, 2(1), 32–39. <https://doi.org/10.1997/f30sw671>
16. Orton, J. (2016). Himalayan folklore and the fairy tale genre. *Humanities*, 5(3), Article 50. <https://doi.org/10.3390/h5030050>
17. Reyes Muñiz, D. L., & Toala Alarcón, M. del C. (2025). The use of interactive fairy tales to enhance listening skills in EFL learners. *Reincisol*, 4(7), 1280–1302. [https://doi.org/10.59282/reincisol.V4\(7\)1280-1302](https://doi.org/10.59282/reincisol.V4(7)1280-1302)
18. Ruini, C., Masoni, L., Ottolini, F., & Ferrari, S. (2014). Positive narrative group psychotherapy: The use of traditional fairy tales to enhance psychological well-being and growth. *Psychology of Well-Being*, 4, Article 13. <https://doi.org/10.1186/s13612-013-0013-0>
19. Shaheen, U., & Tariq, B. (2019). Exploring gender ideology in fairy tales: A critical discourse analysis. *European Journal of English Language and Literature Studies*, 7(2), 44–59.
20. Simon, M. P. (2022). The benefits of using fairy tales in EFL classrooms. *Asian Education Studies*, 7(3). <https://doi.org/10.20849/aes.v7i3.1138>
21. Volkova, S., Boichuk, V., Pavliuk, A., & Yefremova, N. (2023). Linguistic and semiotic representation of pessimism in *The Happy Prince and Other Tales* by Oscar Wilde. *East European Journal of Psycholinguistics*, 10(1), 281–298. <https://doi.org/10.29038/eejpl.2023.10.1.vol>
22. Wernholm, M., Danielsson, K., Ebbelind, A., Palmér, H., & Patron, E. (2023). Young pupils' joint creation of multimodal fairy tales using analogue and digital resources. *Education Sciences*, 13(6), Article 568. <https://doi.org/10.3390/educsci13060568>